

QORAQALPOQ BOTIRLIK ERTAKLARINING KOMPOZITSIYASI HAQIDA

Kuralbaeva Gulchexra Yusip qizi,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi

Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot instituti doktoranti

kuralbaevagulcehra55@gmail.com

Annotatsiya. Tezisda qoraqalpoq xalq botirlik ertaklarining kompozicion xususiyatlari tahlil qilingan va ertakning tarkibiy qismlari chuqur mulohaza etildi. Botirlik ertaklari qaroqalpoq folklorshunosligida o'r ganilishi kerak bo'lgan mavzulardan bo'lib, undagi motivlar ham tilga olinadi.

Kalit so'zlar. Ertak, kompoziciya, inicial, medial, final, janr, motiv, jasorat

KARAKALPAK KAHRAMANLIK MASALLARININ KOMPOZISYONU HAKKINDA

Kuralbaeva Gulchekhra Yusip kizi,

Özbekistan Cumhuriyeti Bilimler Akademisi Karakalpakstan subesi Karakalpak insanı yardım

fen bilimleri araştırma enstitüsü'nde doktora öğrencisi

Karakalpakstan Cumhuriyeti, Nukus

Özet. Bu tezde Karakalpak halk kahramanlik masallarinin kompozisyon özellikleri incelenmekte ve masalin bileşenleri derinlemesine ele alınmaktadır. Karakalpak folklorunda incelenmesi gereken konulardan biri de Batır masallarıdır ve bu masalların motiflerine de deðinilmektedir.

Anahtar kelimeler. Masal, kompozisyon, başlangıç, medya, son, tür, motif, cesaret.

О СОЗДАНИИ КАРАКАЛПАКСКИХ ГЕРОИЧЕСКИХ СКАЗАНИЙ

Куралбаева Гульчехра Юсип кызы,

аспирантка Научно-исследовательского института наук

Каракалпакского филиала Каракалпакского гуманитарного отдела

Академии наук Республики Узбекистан

Республика Каракалпакстан, г. Нукус

Аннотация. В диссертации анализируются композиционные особенности каракалпакских народных героических сказок, глубоко рассматриваются компоненты сказки. Батырские сказки являются одной из тем, подлежащих изучению в каракалпакском фольклоре, и их мотивы также упоминаются.

Ключевые слова. Сказка, композиция, начальная, средняя, финальная, жанр, мотив, мужество

ON THE COMPOSITION OF KARAKALPAK HEROIC TALES

Kuralbaeva Gulchekhra Yusip kizi,

Doctoral student of the Karakalpak Research Institute of Humanitarian

Sciences, Karakalpakstan Department of the Academy of Sciences

of the Republic of Uzbekistan

Abstract. The thesis analyzes the compositional features of Karakalpak folk heroic tales and deeply considers the components of the tale. Heroic tales are one of the topics that should be studied in Karakalpak folklore, and their motifs are also mentioned.

Keywords. Tale, composition, initial, medial, final, genre, motif, courage.

Qaroqalpoq xalq ertaklari mazmun va mohiyati jihatidan yoshlarga va kattalarga birdek namuna boladigan ertaklardan iborat. Ular insonni ma'naviy va axloqiy tarafdan yaxshilik, ezungulik tamon yetaklaydi. Qaroqalpoq xalq botirlik ertaklari ham mazmunan ham kompozicion jihatdan juda qiziqarli va mukammal tarizda bayon qilingan.

Albatta, xaliq og'zaki ijodidagi ertak janrin o'rganish mobaynida uning tuzilishi, mazmuni, obrazlarini chuqir tahlil qilishimiz kerak. Bu borada, kompoziciya har bir asarning asosiy tarkibida muhim ahamiyatga ega. "Kompozitsiya – (lotincha compositio – tuzilish, tartib) badiiy asardagi qismlar, obrazlar va tasvir vositalarining muayyan g'oyaviy maqsadga xizmat qiladigan darajada joylashishi, ularning tasvirdagi mezoni va muvofiqligi. Ijodkor asar orqali o'rtaqa tashlayotgan masala, muammodan kutilgan maqsad, yani badiiy g'oya aniq va izchil bo'lmasa, u asar kompozicion jihatdan mukammal bo'lmaydi. Shuning uchun ham badiiy asardagi har bir detal, epizod yoki vosita doimo bir-biri bilan munosabatda bo'ladi, bir-birini to'ldiradi, birgalikta bosh g'oyani ochishga xizmat qiladi, Demak, kompozitsiya asar mazmunining eng mukammal tarzda namoyon qiluvchi shakliy kategoriyadir" [1, 102 b].

"Kenja bolaning ig'boli" nomli xalq botirlik ertagi o'zida ezungulik, yaxshilik, mardlik, donishmandlik g'oyalarin aks ettirgan. Uni o'qigan inson o'ziga ko'pgina tarbiyaviy hislatlarni o'zlashtiradi. Uning inicial bo'limi qolib bo'lib shakillangan "Qadimgi o'tkan zamonda bir boy bo'lgan ekan" – deb boshlanadi. Ertakta boyning uch o'g'li bo'lib, bir kuni boy bolalarin sinov maqsadida yoniga chaqiribti. Dastlab, katta o'g'lini chaqirib: "Balom, men endi qaridim, bu dunyoni tashlab ketishim yaqin. Endi sizlarga o'zimning tuhfalarimni berishim kerak. Senga nima berishimni xoxlaysan" – dep so'rabdi. [2, 280 b]. Bu savolga boyning katta va o'rtanchi o'g'illari mol-dunyongizdan bering deb javob beribti. Kenja o'g'il bo'lsa, bul savolga quydagisha javob beradi: "Ota dunyosi davlat bo'lmas degan, shunday emas mi? Ota siz menga aqilingiz va nasiyxatingizni bering. Boshqasin nasibamnan ko'raman, - debdi". Otasi o'g'liga: "Men o'lganimnan keyin mening qabrimda uch kun tuna, sening ig'boling oldinda, - dep ayitbd". Bu gaplardan anglashimiz mumkin har bir farzandning kelajagin ta'minlab bera olmaydi, aksinsha har bir inson o'z aql-idroki va mehnati evaziga erishkan narsalari uning doyimiy hamrohi bo'lishi mumkin. Eng ulug' meros bu – aql va donishmandlikdir. "Qoraqalpoq xalq ertaklarining kompozitsiyasida o'rin olgan syujetlarda ushbu xalqning ijtimoiy hayotida bo'lgan, bo'layotgan voqealari, falsafiy qarashdan olib qaraganda borliq, odamlarning o'zaro munasabatlari estetik ko'rinishda ifodalananadi. Ertaklardagi bosh qahramon xalqning arzu-armonidagi, o'yongidagi odam bo'lib topiladi. Masalan, qoraqalpoq xalq sehrli ertaklarining qahramonlari ko'pincha kambag'al, etim bola, yigit, dehqon, cho'pon, mergan, ovchi, botir, shaxzoda va boshqalar. Ular odatdagidek uyidan qandaydir sabablar bilan chiqib ketadi: tengdosh yorini, baxtini izlaydi, talab, ish qidirib ketadi, otasining topshirig'i bilan safarga otlanadi va hokazo. Ular mardligi, aql-zakovati bilan birga sehrgarlik hunari, sehrli qurol-yarog'lari, buyumlari bilan dushmanlarni yengib boradi" [3,76 b].

Ertak kompozitsiyasi rivojlanish nuqtasida voqealar toboara chigallasib bo'radi. Boy kun kelib bu dunyodan o'tadi va ikki o'g'il mol-dunyoni bo'lib oladi kenja o'g'il esa chopan bo'lib mollarni boqib yuradi. Bir kuni u ota vasiyatini qilib, otasining qabrida tunaydi. Birinchi kuni otasi tushiga kirib: "Balom, bir yerda bir biya yilda tulpor dunyoga keltiradi, ammo bu tulporni osmonnan bir qora bult yilda olib ketadi, - debdi". Ikkinchchi tunaganida: "Balom, bir dengizdan odamlar kemada o'tadi, ammo shu kema dengiz o'rtasiga kelganda bir qo'l chiqib uni cho'ktiradi, ularni qutqar - debdi". Uchinchi tunaganida: "Balom, bir yerda bir ajdarho bor. U xalqni yutib u

yurtga qiron keltirmoqta, shu yerga bor, -debdi”. Bundan keyin Kenja o‘g‘il otasidan qolgan qilichni olib yo‘lga ravona bo‘libdi.

“Kenja bolaning ig‘boli” ertagi kompozitsion jihatdan xronologik ravishda tuzilgan bo‘lib, asosiy, o‘rta va yakun bo‘limlari ketma-ketlikda rivojlanib bo‘radi. Ertakning kulminatsiya nuqtasi eng qiziqarli bo‘limi hisoblanib o‘quvchi diqqatini o‘ziga jalb qilib oladi. Kenja bola yo‘l yurib borayotganda oldidan br olamon chiqib faryod chekib o‘tirgan bo‘ladi va ulardan buning sababini so‘raydi. Odamlar tug‘ilgan tulporni har yili bir qora bulut olib ketib qoladi, deydi. Kenja bola tulporni qutqarishini aytadi va paydo bo‘lgan qora bultni qilichi bilan chopib tashlaydi. Tulporning egasi Kenja bolaga xizmati evaziga tulporni hadya qiladi. Bunnan keyin qaharmonimiz yo‘lini davom etadi va dengizda kemani cho‘ktirib yuboradigan yerga keladi. Kemaga o‘zi chiqib dengiz o‘rtasiga kelganda bir qo‘l chiqadi, kenja bola u qo‘ldan ushlab tortib oladi. Dengiz tubidan chiqqan bu qo‘l suv pariysi bo‘ladi va ul tilga kirib kenja bola bilan birga ketadi.

So‘nngi manzildagi ajdarhoni ham yengib, ertaktagi bosh qaharmon Kenja bola sinovlardan mardanovar o‘tib o‘z maqsadiga etadi. Ertak kompoziciyasin mukammal tarizda bo‘yitib bergen unsur bu – motiv. Ertakta tush motivining qo‘llanilishi voqealarning kulminacion nuqtaga yetishiga sabab bo‘lgan. “Motiv –fransuz tilida motiv – irg‘oq degan manoni bildiradi. Motiv badiiy asar syujetining rivojlanishiga tasir qiladi” [4, 142 b]. Xalq og‘zaki ijodidan orin olgan qahramonlik eposlaridagi botirning tug‘ilishi, botirlik qurol-yarog‘larga ega bo‘lishi, sadoqatli yor izlashi, qahramonlik yurishi kabi motivlar botirlik ertaklarga xos bo‘lgan xususiyatlardan hisoblanadi, ammo ertak janrining syujet hajmining kichikligi bu motivlarni to‘liq tasvirlay olmaydi, faqatgina bazi elementlarin o‘zida mujjasamlashtiradi.

Bu ertakdan anglashimiz keraki, insonning aqil-idroki, manaviyati, mardlik va jasorati uning eng sadoqatli do‘stilaridir. Bu kabi ertaklar yoshlarni va kattalarni yaxshilik, inson insonga yelkadosh, mehr-oqibat, jasorat yo‘lida tarbiyalaydi. Xulosa qilib aytganda, “Kenja bola ig‘boli” ertagi kompozitsion jihattan xronologik tarizda bayon qilingan bo‘lib, unda sinov va tush motivlari, sujet tuzilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- Салаев Ф. Қурбониёзов Г. Адабиётшунослик атамаларининг изоҳли сўзлиги. – Тошкент: «Янги аср авлоди», 2010. Б. 332.
- Қарақалпак фольклоры. Көп томлық 67-76-томлар. – Нөкис: «Илим», 2014. Б. 560.
- Отениязов П. Қорақалпоқ халқ әртакларининг жанр хусусиятлари ва поэтикаси. – Republic of Moldova: GlobeEdit, 2022. Б.138.
- Járimbetov Q., Nizamatdinov J., Allambergenova I. Qaraqalpaq folklori. - Tashkent: «Sano-standart», 2018. B. 255.